



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARALI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Omonova Mohinur Komiljon qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganilgan va ushbu yondashuvni O'zbekistonda joriy etishning imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy ta'lim tizimida sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi tadqiq etilgan. Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, xorijiy davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Italiya, Shvetsiya va Rossiyadagi amaliy tajribalar tahlil qilinib, ushbu tizimning afzalliklari va cheklovlari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, ta'lim tizimi, integratsiya, xorijiy tajriba, imkoniyati cheklangan bolalar, umumta'lim.

KIRISH

Imkoniyati cheklangan bolalar, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash butun dunyo jamoatchiligi, jumladan bizning davlatimizning diqqat markazida turadi.

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o'z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta'minlash maqsadida ta'limning ustuvor shakli sifatida umumiy, ya'ni inklyuziv ta'lim belgilangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-ona mehridan bahramand bo'lib o'z mahallasida tengqurlari orasida umumiy ta'lim olish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion – uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) bu ko'p davlatlarning davlat siyosati bo'lib, nogiron va



maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishdir.

ASOSIY QISM

Jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilmoqda.

Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga tulu integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalar va kompensatsiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim xizmatini ko'rsatish mas'uliyatidan ozod etilmaydi [5].

AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim xollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan.

Avstriyada 1945 yildan boshlab nogiron bolalarni differensial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lim tizimida barcha turdagi nuqsonli bolalar o'qitila boshladi. Ammo 1980 yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitilishini talab qilib chiqdilar [6].

Niderlandiyaning 28 ta umumta'lim boshlang'ich maktablarining tarkibida nuqsonli bolalar xam o'qitiladi. Ta'limiy maslahat markazlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash yullari, xususiyatlari hamda bu bolalar haqida bilish va ma'lumotlar berish borasida budim faoliyat yuritgan. Bu bo'limlarda o'quv materiallari va dasturlarini yangilash, integratsion ta'limning yagona g'oyasini ishlab chiqish, bu ta'lim tizimidagi muammolarni yullarini izlab topish borasida ish yuritilgan [7].

Buyuk Britaniya maxsus muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan og'ir darajadagi nuqsonli bolalarni integratsiyalash dasturi ishlab chiqilgan edi. Qaysi maktabda integratsion ta'lim tizimi joriy etilgan bo'lsa, o'sha maktabga maxsus muassasalarda o'qitilayotgan bolalarning bir qismi qamrab olindi. Integratsiya tizimini yanada puxtaroq joriy etish maqsadida o'yinlar, jismoniy tarbiya, raqs va bir qancha amaliy mashg'ulotlar kiritildi



Rossiyada maxsus ta'lim ikkita yunalishada: differensial va integratsiya tarzda tashkil etilgan. Differensial ta'lim 8 yunalishni o'z ichiga oladi. Oxirigi paytlarda Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa Rossiyaning bir qator shaharlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish borasida ilmiy izlanishlar va psixologo-pedagogik amaliy ishlar olib borila boshladi [8].

Ota-onalari maxsus maktab-internatga berishni xohlamaganliklari sababli uyda yakka tartibda o'qitilayotgan va qisman umumiy ta'limga qatnashayotgan o'quvchilar.

Bolaning eshitmasligi qanchalik erta aniqlanib unga eshitish apparati taqilsa, shunchalik u eshitishni oldinroq; o'rganadi va nutqi tez, aniq va ravon bo'lishi amaliyotda o'z tasdiqini topgan. Shuning uchun har bir ona o'z farzandiga alohida e'tibor berib borishi, bolaning eshitish imkoniyatini nazorat qilib, shubha tug'ilishi bilan uni surdologik va audiologik tekshiruvdan o'tkazishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqqan holda, inklyuziv ta'limni umumta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ularga teng imkoniyatlar yaratish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samaradorligi faqat maxsus infratuzilmani yaratish bilangina cheklanmay, balki pedagoglarning yuqori malakasi, o'quvchilar va ota-onalar orasida ijtimoiy ongni shakllantirish bilan ham bevosita bog'liqdir.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etishda asosiy diqqat ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-uslubiy vositalar bilan jihozlash, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda inklyuziv ta'limning ahamiyatini tushuntirish va inklyuzivlikka oid ijtimoiy stereotiplarni yengib o'tish bo'yicha ishlar olib borilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi. Fayzieva U, Nazarova D, Qodirova F. Surdopedagogika. T: "Sano-standart" 2012
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi A.Avloniy nomidagi Xalq



ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti "Maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish va qayta tayyorlash – ta'limda tenglikni amalga oshirish" Mavzusidagi Respublika seminari (Ma'ruzalar to'plami) T. 2004 y

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti, tuzuvchi- muallif: D. A. Nazarova "Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati" T. 2009 y

4. Zokirova, N. M. Inkluziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 240 b.

5. Karimov, A. A. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020. – 185 b.

6. UNESCO. Inkluziv ta'limning global holati to'g'risidagi hisobot: yutuqlar, muammolar va istiqbollar. – Parij: UNESCO, 2022. – 180 b.

7. Mahmudova, S. T. O'zbekiston ta'lim tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish masalalari // Ta'lim va tarbiya jurnali. – 2023. – №2. – B. 34–40.

8. Normurodov, X. M. Maxsus ta'lim va inkluziv ta'lim o'rtasidagi muvofiqlik masalalari // Pedagogika va innovatsiyalar. – 2022. – №4. – B. 58–63.

9. Jahon banki. Inkluziv ta'lim: rivojlanayotgan mamlakatlarda yondashuvlar va istiqbollar. – Vashington: Jahon banki, 2021. – 142 b.